



## KASBIY FAOLIYATDA TARG'IBOTCHINING KREATIVLIGI

Eshbekova Sayyora To'rabek qizi

Siradaryo viloyati Guliston tumani

70-MI da ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda tarbiyachining kreativligi haqida so'z borgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy faoliyat, ijod, kreativlik, ijodkorlik qobiliyati, kreativ tafakkur.

Bolani yoshligidan badiiy tafakkur qilishga o'rgatish, iste'dodini yuzaga chiqarish uning intellektual rivojida muhim omil sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qaroriga muvofiq, o'tgan o'quv yilidan boshlab o'rta umumta'lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

Ushbu lavozim ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, iqtidorli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash, uni ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi. Aytaylik, bugun "Yosh ijodkorlar" to'garagiga qatnashayotgan hamma bolalar ham kelajakda shoir-yozuvchilikka da'vo qilmas, lekin ular bu muhitda ma'rifatli-ma'naviyatli insonlar bo'lib ulg'ayishi tabiiy. Bunda maktab targ'ibotchilarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Garchand, jamiyatga yetuk shoir, adib, ijodkor shaxs yetishtirib chiqarmasada, yurtimizga nafi tegadigan ma'naviyatli, ma'rifatli, keng dunyoqarashli avlodlarning jamiyatimizda o'z o'rnini topib ketishiga yordam beradi. Maktablarda targ'ibotchilar ijodkor bo'lishi bilan bir qatorda keng jamoa ishlarida faol, siyosiy-ma'rifiy jabhalarda o'z faoliyati bilan harakatlanishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi maktablardagi ijodiy-ma'naviy va ma'rifiy tadbirlarga ijodkorona yondashishi talab etiladi. Bu yo'nalishda albatta serqirra, faol o'quvchilarni ham yo'naltirish lozim. Respublikamizning barcha maktablarida madaniyatni, san'atni, she'riyatni, jurnalistikani sevmaydigan o'quvchilar yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi. Deyarli barcha maktablarda ijodkor o'quvchilar mavjud. Ijod albatta, o'quvchilarimizning sof ruhiyatida namoyon bo'ladi, go'zallikka oshno bu qalblarda ijodning serqirra namoyandalari yuzaga chiqaveradi. Buni aniqlash va ijodkor o'quvchilarga yo'nalishlar berish uchun ham maktab targ'ibotchilari ham keng dunyoqarashli, o'tkir fikrli va albatta ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishlari talab etiladi. Targ'ibotchilarning maktablarga kirib borishi avvalo u yerdagi ijodiy muhitni jonlantiradi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning aniq mexanizmlari yaratiladi. Mamlakatimizdagi barcha maktablarda "Yosh ijodkorlar" to'garaklari tashkil etilib, o'quvchilarning ijod namunalari mahalliy va markaziy ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmoqda. Bu ham yoshlarga katta ma'naviy rag'bat bo'lmoqda.

Maktabda targ'ibotchilar ijodkor o'quvchilarning ijodlarini sayqallashtiradi, yanada jilo bag'ishlaydi. Bunda targ'ibotchi o'zining ijodkorlik qobiliyatiga tayanib ish



tutadi. Shuningdek, maktablardagi badiiy-ijodiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham targ'ibotchi yetakchi o'rin egallaydi, bunda uning estetik faoliyatlari ham inobatga olinadi. Bundan tashqari, targ'ibotchi kasbiy faoliyatida o'zida quyidagi kreativlik xususiyatini aks ettirishi lozim:

1. Targ'ibotchi-kundalik yangiliklardan „O'zbekiston -24'’, „Axborot'’, „Davr'’, „Markaziy studiya'’, „Zamon'’, „Diyor yangiliklari'’, „Bu kun'’, ko'rsatuvlaridan , „Xalq so'zi'’, „Yangi O'zbekiston'’, „Yoshlar ovozi'’, „Tafakkur'’, „O'zbekiston adabiyoti va san'ati'’, „Hurriyat'’, „Kitob dunyosi'’, „Yangi Sirdaryo “ kabi gazeta-jurnallardan, boshqa vositalar-internet materiallaridan doimo xabardor bo'lishi talab etiladi.
2. Targ'ibotchi-sermutolaalikni odat qilib, badiiy kitoblarni , ayniqsa, she'rlarni, g'azallarni yodlagan bo'lishi zarur.
3. Targ'ibotchi-mamalakatda bo'layotgan barcha yangiliklardan xabardor bo'lishi shart.
4. Targ'ibotchi-tashviqotchi-notiq-Prezident, hukumat qabul qilayotgan farmon va qarorlardan , qonunlardan ogoh bo'lishi, qiziquvchanlik, intiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi lozim.
5. Targ'ibotchining hozirjavoblik xususiyatiga ega bo'lishi ham fazilat hisoblanadi.
6. Targ'ibotchi har bir mavzu bo'yicha ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rayotganda shu sohadagi yangiliklarni , qarorlarni, qonunlarni, me'yoriy hujjatlarni o'rganishi va ulardan ogoh bo'lishi va foydalangan bo'lishi zarur.
7. Targ'ibotchi qayerda, qachon, kimlarga qarata gapirishidan qat'iy nazar samimiy, go'zal gapirishi zarur. Oilasidagi, ishxonasidagi ko'ngilsizliklar uchun tinglovchilar jabr tortmasliklari kerak.
8. Targ'ibotchi ma'ruzani nomigagina ro'yxatdan o'tkazish uchungina o'tkazaman, desa, katta xato qilgan bo'ladi va bunday holda notiqni, ma'ruzachini obro'e'tiborini keng xalq ommasida hamda o'quvchilar orasida tushib ketadi. Yaxshisi shunday o'ylaydiganlar notiqlikni yig'ishtirgani, ma'ruza o'qimagani , suhbat o'tkazmagani maqsadga muvofiq bo'ladi.
9. Targ'ibotchi kiyinish madaniyatiga alohida e'tibor berishi zarur.
10. Targ'ibotchi yumorni, hazil-mutoyibani , ma'rifatga aloqador, mavzuga oid rivoyatlarni ko'p bilishi va ulardan ma'ruzasida o'rinli foydalana olishi kerak. Yumor o'z o'rnida mavzuga taalluqli bo'lishi zarur.
11. Targ'ibotchining har bir xatti-harakati , har bir so'zi , fikri, ijtimoiy axloq, estetika me'yorlariga mos holda bo'lishi zarur.
12. Targ'ibotchining obro'-e'tibori uni faqat yaxshi , chiroyli , jozibali so'zlashi bilangina emas, balki uning lug'at boyligi kengligi, hamma tushunadigan, qofiyali so'zlarini o'z o'rnida ishlata bilishi bilan ham o'lchanadi.
13. Targ'ibotchi nutqida tinglovchilar tushunmaydigan so'zlarni qo'llamasligi kerak, o'zbek adabiy tilida gapirishi zarur.
14. Targ'ibotchi o'zi so'z yuritayotgan mavzu bilangina chegaralanmasdan kundalik hayotdagi muammolar, masalalar, odob-axloq, nafosat , estetik did, o'tkir ma'naviyatlilik, madaniyatlilik haqida ham to'liq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Bu xususiyatlar notiqning kiyimi , xatti-harakati va mimikalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham, notiq ozoda, chiroyli, yoqimli, did bilan kiyingan bo'lishi shart. Notiqning





chehrasi doimo ochiq samimiy,sodda ifodaliligi bilan tinglovchilarni o'ziga rom etishi kerak.

Hozirgi texnologiya rivojlangan zamonda fandagi yangiliklar,o'zgarishlar shiddat bilan rivojlanmoqda.Buning natijasi o'laroq yangi fikrlash,yangicha nigohlar paydo bo'lmoqda,shuningdek yoshlarimizdagi ijobiy va salbiy o'zgarishlar ham e'tiborimizni tortmay qolmaydi.Hozirgi internet rivojlangan paytda ayrim yoshlarimiz bundan unumli foydalanishmoqda,biroq hayotining mazmuni „internet’’bo'lib qolgan ayrim yoshlarimiz ham yo'q emas.Bu kabi yoshlar internetga bog'lanib qolib,atrof-muhitga befarqlik,xalqimizdagi an'analarga bee'tiborda bo'lish,atrofdagi insonlar bilan murosasizlikka borib qolish kabi muammolarga uchrashmoqda.Bu albatta yoshlarimizning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Bu kabi muammolarni oldini olish borasida maktabning har bir bolasini o'rganish,uni o'zi qiziqtirgan mashg'ulotlarga yo'naltirish kabi vazifalar olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.Shu xususida aytib o'tish joizki,maktab faoliyatida tarbiyasi og'ir bolalar bilan alohida shug'ullanish borasida ularni turli xil badiiy kechalar,tanlovlar,tadbirlarda faol ishtirokini ta'minlash natijasida ularning dunyoqarashida keskin o'zgarishlar paydo bo'ladi.

Avvalo, maktablarda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar bu ishda mas'uldirlar.Dastab,bunday bolalarni ruhiyatida o'zlariga ishonch hosil qilish ,oldinga dadil qadam tashlay olish qobiliyatini shakllantirish ,atrofni ,go'zallikni sevisish kabi fazilatlarni his qildirish lozim.Bunda targ'ibotchilar ushbu yoshlarimiz bilan suhbat darslari orqali bosqichma –bosqich ularni ijobiy shakllantiradilar,bundan tashqari buning o'ziga xos metodlari va usullari vositasida amalga oshiradilar.Bu borada targ'ibotchi-tashviqotchi oldida kata vazifalar,mas'uliyat turadi.Targ'ibotchi-tashviqotchidan –yo'naltirish,vazifa qo'yish,maslahat berish,o'rgatish,qo'llash,nazorat qilish,yordam berish,kuzatish,tartibga solish,talab etish,ko'rsatma berishboshqarish vazifalarini bajarish talab etiladi.targ'ibotchilar „Klaster’’, „FSMU’’, „Muammoli vaziyat’’, „Tushunchalar tahlili’’, „Qanday’’ metodlaridan foydalanib muloqotga va mustaqil fikrlashga undovchi interfaol metodlardan foydalanib ish olib borishlari mumkin bo'ladi.

Zero,ertamiz egalari- kelajak avlodlarning taqdiriga befarq bo'la olmaymiz,yoshlarimizning ertangi yuksak hayotlarining yorqinlashishi uchun ularning hayot yo'lida ma'naviy-ma'rifiy chiroqlarni yoritishimiz darkor,shundagina har bir barkamol avlod yurtning,xalqning qadriga yetadi,uning ertasi uchun qayg'uradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori**
2. **Oyina.uz**
3. **Ziyo.uz sayti**
4. **Ravshan Mahmudov.Ijodiy targ'ibotchi mas'uliyati va tashviqot majburiyati.T,„Innovatsiya-Ziyo,2022.**